

AMUDARYO HAVZASIDA SUV XO‘JALIGI BOSHQARUVI, MODDIY-TEXNIK BAZASI VA KADRLAR SALOHİYATI O‘RTASIDAGI NOMUTANOSIBLIK (XX ASRNING IKKINCHI YARMI)

Eshmirzayev Ziyodulla Olimjon o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

mail: ziyodullaeshmirzayev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21768838>

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish tizimini isloh qilish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va eskirgan sug‘orish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayni paytda amaldagi tarmoq XX asr davomida shakllangan boshqaruv strukturasi, moddiy-texnika bazasi va kadrlar tayyorlash tizimining bevosita vorisi hisoblanadi. Shu bois Amudaryo havzasida o‘tgan asrda amalga oshirilgan yirik irrigatsiya dasturlarining institutsional ijro mexanizmini birlamchi arxiv manbalari asosida o‘rganish va shu orqali bugungi muammolarning tarixiy ildizini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Muammo. Mavjud tarixshunoslikda XX asr irrigatsiya qurilishi asosan miqdoriy yutuqlar — o‘zlashtirilgan gektarlar, qurilgan kanallar va kapital qo‘yilmalar hajmi orqali baholanadi. Biroq hujjatlar boshqacha manzarani ko‘rsatadi: moddiy-texnik quvvatlar va mutaxassislar sonining jadal o‘sishi sohaning real samaradorligini muvofiq darajada oshirmagan. Nazariy jihatdan yaxlit deb qaralgan tizimning uchta bo‘g‘ini — boshqaruv, moddiy baza va kadrlar — o‘rtasidagi ana shu nomutanosiblik hozirgacha alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi — Amudaryo havzasining O‘zbekiston qismida suv xo‘jaligi boshqaruvi, moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatining o‘zaro bog‘liqligini arxiv hujjatlari asosida aniqlash hamda tizimning samaradorlik chegaralarini belgilab bergan omillarni asoslashdan iborat.

Tadqiqot natijalari. Birlamchi manbalarni tahlil qilish quyidagi natijalarga olib keldi.

Birinchidan, boshqaruv tizimi an‘anaviy mirobchilik institutidan ko‘p pog‘onali idoraviy tuzilmagacha uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Asrlar davomida suv taqsimoti miroblar, ariq oqsoqollari va suvchilar zimmasida bo‘lib, ular alohida ijtimoiy tabaqani tashkil etgan [A.Muxamedov 2008: 12]. 1918-yildagi Turkvodoxdan boshlangan markazlashtirish jarayoni [R.Xatamova 2021: 76] 1950-yillarning boshlariga kelib to‘liq vertikal bo‘ysunuvga asoslangan direktiv modelning qaror topishi bilan yakunlandi [III.Чжун 2019: 9].

Ikkinchidan, 1965-yildan so‘ng amal qilgan ikki vazirlik modeli idoraviy tarqoqlikni keltirib chiqardi va bu, avvalo, ekspluatatsiya bo‘g‘inida namoyon bo‘ldi. O‘zSSR Qishloq xo‘jaligi vazirligining 1971-yil 16-iyuldagi 52-son qarori xo‘jaliklarda kollektor-drenaj tarmoqlaridan foydalanish xizmati tashkil etilmaganini, ekspluatatsiya shtatlari gidrotexniklar bilan ta‘minlanmaganini va kanallarning ko‘pchiligi gidrometrik postlarga ega emasligini qayd etdi. Shu bilan birga o‘sha yili xo‘jalik ichki tarmoqlari orqali 4,3 million gektar, jumladan 3,5 million gektar melioratsiyalangan yerni sug‘orish rejalashtirilgan edi [ЎЗР МДА, Р.90-жамфарма, 10-рўйхат, 4456-йиғма жилд, 6-11-варақлар].

Uchinchidan, moddiy-texnik bazaning miqdoriy o‘sishi uning sifatli ishlatilishini ta‘minlamadi. 1950–1955-yillarda traktorlar bilan bajarilgan ish hajmi 61 foizga oshgan bo‘lsa, paxtaning yalpi hosili atigi 11 foizga ko‘paydi. 1980-yillarga kelib mintaqada suv xo‘jaligi yiliga 3000 km yopiq gorizontall drenaj qurish, 2 million kubometrgacha yig‘ma temir-beton ishlab chiqarish va

1 million gektargacha maydonda ekspluatatsion tekislash bajarish quvvatiga ega bo'ldi [В.Духовный, Ю.де Шуттер 2011: 405]. Shunga qaramay xo'jalik ichki tarmoqlarini tozalash me'yoriy uch yil o'rniga amalda olti-yetti yilda bir bajarilar, qurilish trestlarida ish frontining yo'qligi ekskavatorlarning uzoq bekor turishiga olib kelar edi [Ф.Шамсутдинов, В.Григорьева 1975: 24].

To'rtinchidan, kadrlar tayyorlash tizimi jadal kengaydi, biroq malaka tarkibi talabdan orqada qoldi. Melioratorlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari soni 1963-yildagi 17 tadan 1969-yilda 30 taga, texnikumlar 32 tadan 90 taga yetdi; TIIMSX o'n yillik ichida 8710 mutaxassis yetkazib berdi va yetti yil mobaynida dunyoning 36 mamlakati uchun 289 mutaxassis tayyorladi [С.Искандаров, Ф.Рахимбоев 1984: 27]. Ayni vaqtda Koson tumani sug'orish tizimlari boshqarmasida 1965–1966-yillarda ishlagan 39 mutaxassisdan faqat bittasi oliy ma'lumotga ega edi.

Beshinchidan, kadrlar qo'nimsizligi surunkali tus oldi: «Узглавводстрой» korxonalarida yillik oqim 80 foizgacha yetgan, xo'jalik islohotidan so'ng ham «Farg'onasuvqurilish» trestida 1970-yilda 38,4 foizni, «Surxonsovxozqurilish»da 45,5 foizni tashkil etgan. 1972-yilgi maxsus so'rov ishdan bo'shaganlarning qariyb 40 foizi mehnatni tashkil etishdagi kamchiliklar va ish haqidanozilik tufayli ketganini ko'rsatdi [Ф.Шамсутдинов, В.Григорьева 1975: 22–23].

Oltinchidan, yuqoridagilar yagona qonuniyatga birlashadi: tizimda yangi qurilish ko'rsatkichlari ekspluatatsiya sifatidan, idoraviy manfaatlar esa tarmoq manfaatlaridan doimiy ustun qo'yildi. 1970-yillarning ikkinchi yarmi — 1980-yillar boshidagi agrosanoat integratsiyasiga urinishlar ham direktiv boshqaruv mohiyatini o'zgartirmay, uni yangi tashkiliy qobiqlarga o'rab qo'ydi, xolos [Ш.Чжуан 2019: 16].

Xulosa qilar ekanmiz, fikrimizcha, XX asrning ikkinchi yarmida Amudaryo havzasida shakllangan suv xo'jaligi tizimining asosiy zaifligi resurs tanqisligida emas, balki uch bo'g'in o'rtasidagi tizimli nomutanosiblikda bo'lgan: markazlashgan boshqaruv ulkan safarbarlik quvvatiga ega bo'lgani holda quyi bo'g'in manfaatdorligini shakllantira olmadi, moddiy baza esa yaratilgan fondlarni saqlash mexanizmisiz o'sdi va kadrlar tayyorlashning miqdoriy ko'rsatkichlari ularni ish joyida saqlab qolish sharoitlari bilan ta'minlanmadi. Shu bois havzadagi Surxon-Sherobod, Qarshi, Buxoro va Quyi Amudaryo dasturlarining natijalari ham aynan mana shu institutsional cheklovlar doirasida belgilandi. Tadqiqot o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishdi, olingan xulosalar bugungi suv xo'jaligi islohotlarida ekspluatatsiya bo'g'ini va kadrlar barqarorligiga alohida e'tibor qaratish zaruratini asoslaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston milliy arxivi (O'zMA), R.90-jamg'arma, 10-ro'yxat, 4456-yig'ma jild.
2. O'zMA, R.2483-jamg'arma, 1-ro'yxat, 749-yig'ma jild.
3. Духовный В.А., де Шуттер Ю.Л.Г. Вода в Центральной Азии: прошлое, настоящее и будущее. – Ташкент: НИЦ МКВК, 2011. – 405-406 с.
4. Искандаров С.И., Рахимбоев Ф.М. Ўзбекистонда ирригация ва мелиорациянинг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1984. – Б. 27.
5. Маркевич Е.Н. Тюямуянский гидроузел на р. Амударье // Гидротехника и мелиорация. – 1966. – №9. – С. 3-7.
6. Мухамедов А. Сув хўжалиги ва мелиорацияга кириш. – Тошкент: Тошкент ирригация ва мелиорация институти, 2008.
7. Рыкунов М.В. Ближайшие задачи по ирригации Средней Азии // Вестник ирригации. – 1925. – №4. – С. 3-7.

8. Хатамова Р. Ўзбекистонда сув хўжалиги ходимлари ва ирригаторлар тайёрлаш анъаналари тарихи: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент: ТИҚХММИ, 2021. – Б. 76.
9. Чжуан Шици. Аграрная политика и развитие сельского хозяйства СССР в середине 1960-х – середине 1980-х гг.: Дисс. ... канд. ист. наук. – М.: МГУ, 2019. – С. 9-10, 16.
10. Шамсутдинов Ф.Ш., Григорьева В.Ф. Как бороться с текучестью кадров в водохозяйственном строительстве // Гидротехника и мелиорация. – 1975. – №8. – С. 22-25.